

**ChET EL VALYUTASINI SOTIB OLIISH VA SOTISH BO'YICHA
BOSH KELISHUV №[raqami]**

[shartnoma tuzilgan joy ko'rsatiladi]

[sana]

Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATB (keyingi o'rinlarda "*bank*" deb yuritiladi) nomidan _____._____._____ yilda taqdim etilgan _____ - sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi _____, (keyingi o'rinlarda "*mijoz*" deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi _____ ikkinchi tomondan (umumiylashtirib "*tomonlar*" deb yuritiladi), ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar (keyingi o'rinlarda "**shartnoma**" deb yuritiladi):

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Bank sotadi/sotib oladi, mijoz ushbu shartnoma va mijozning arizasi asosida chet el valyutasini sotib olish/sotish uchun amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa zaruriy hujjatlar asosida bank tomonidan belgilangan kurs bo'yicha chet el valyutasini sotib oladi/sotadi.

1.2. Bank AQSH dollarida (kelishilgan holda barcha xorijiy valyutada) ifodalangan sotib olish/sotish, mijozning shartnomasi va/yoki hujjatida (shartnoma, repatriatsiya protokoli) ko'rsatilgan valyutalar turlaridan qat'iy nazar, buyurtmalarini qabul qiladi.

1.3. Sotib olingan/sotilgan chet el valyutasidan foydalanishdan maqsad (shartnoma raqami, protokol, bitim va boshqalar.), so'ralgan summa ((AQSH dollarida) kelishilgan holda barcha xorijiy valyutada), chet el valyutasini sotib olish/sotish to'g'risidagi arizada ko'rsatiladi.

1.4. Haqiqiy operatsiya kursi belgilangan tartibda tijorat banki tomonidan chet el valyutasini sotib olish/sotish vaqtida belgilanadi.

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Mijoz majburiyatlari:

2.1.1. Bankka mijoz tomonidan chet el valyutasi sotilayotgan paytda, mijoz arizada ko'rsatilgan, sotish uchun yetarli miqdordagi chet el valyutasi mablag'lariga ega bo'lishi kerak.

2.1.2. mijoz tomonidan chet el valyutasini sotib olishda:

- a) sotib olish operatsiyalarini amalga oshirishning zaruriy sharti: chet el valyutasini sotib olish uchun hisob raqamida milliy valyutada yetarli mablag'ga ega bo'lishi;
- b) bankdan sotib olingan chet el valyutasi kirim qilinadigan maxsus valyuta hisob raqamini ochishi (22614);
- c) bankka taqdim etiladi:
 - bank tomonidan tasdiqlangan shakldagi chet el valyutasini sotib olish/sotish uchun ariza (keyingi o'rinlarda matnda – ariza deb yuritiladi);
 - shartnoma nusxasi va/yoki boshqa hujjat (shartnoma, repatriatsiya uchun protokol va dividendlar va boshqalar.);
 - valyutani sotib olishda /sotish maqsadiga qarab, mijoz, shu jumladan, bankka arizaning asoslarga tayanganini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi.

2.1.3. Shu bilan birga, taqdim etilgan hujjatlar amaldagi qonunchilik va ushbu shartnoma talablariga mos kelmasa, bank mijoz so'rovini bajarishni rad etishga haqli.

2.1.4. Taqdim etilgan arizaga muvofiq, sotib olingan chet el valyutasidagi mablag'larni maxsus xorijiy valyutadagi hisob raqamlariga qabul qilish va mablag'larni qabul qilingan paytidan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida ishlatish.

2.1.5. Sotib olingan chet el valyutasini taqdim etilgan ariza va shartnomaga yoki boshqa hujjatga (shartnoma, dividendlarni qaytarish to'g'risidagi protokol va h.k) muvofiq qat'iy

ravishda maqsadli foydalanish, ushbu shartnomaning 2.1.2-bandida ko'rsatilgan.

2.1.6. "Ariza"ni bekor qilish yoki sotib olingan valyuta mablag'larini qaytarib sotish, shartnomaning quyidagi shartlaridan birortasi o'zgargan holda:

- a) shartnoma bo'yicha tomonlarning o'zgarishi;
- b) shartnoma raqami yoki sanasining o'zgarishi (ushbu holatda shartnoma yuridik kuchga ega bo'lmaydi);
- c) ariza bo'yicha sotib olish maqsadlarining o'zgarishi;
- d) shartnoma bo'yicha to'lov shartlarining o'zgarishi ("fakt bo'yicha", "akkreditiv", "oldindan to'lov").

2.1.7. Agar yuqoridagi holatlar ro'y bersa va mijoz tomonidan arizani bekor qilish to'g'risida xat taqdim etilmasa, Bank mustaqil ravishda akseptsiz arizani bekor qilish huquqiga ega.

2.1.8. Ushbu shartnomaning 2.1.2-bandi asosida bank tomonidan talab qilingan hujjatlar/ma'lumotlarni taqdim etishdan bosh tortilganda va taqdim etmaslik holatlarida Bank mijozning moliyaviy operatsiyalarini to'xtatish/tugatish bo'yicha bitimni amalga oshirishni rad etish huquqiga ega.

2.1.9. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda Bankning so'roviga asosan lozim darajada tekshirish va operatsiyaga doir tegishli hujjatlarni taqdim qilish.

2.1.10. O'z faoliyati bilan bog'liq bank operatsiyalarining xalqaro va milliy sanksiyalar talablariga muvofiqligini o'rganib borish.

2.1.11. Xalqaro va milliy sanksiya talablarini buzmaslik, qasddan chetlab o'tishga urinmaslik.

2.1.12. O'z faoliyati bilan bog'liq bank operatsiyalarining xalqaro va milliy sanksiyalar ta'siriga aloqadorligi aniqlanganda, bu to'g'risida bankka yozma ma'lumot taqdim qilish.

2.1.13. Arizada va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgarlik mijozga yuklatiladi.

2.1.14. Amaldagi qonuniy hujjatlar va ushbu shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar.

2.2. Bank majburiyatlari:

2.2.1. mijozning arizasi bank tomonidan taqdim etilgan kunda yoki keyingi bank kunidan kechiktirmay bajariladi.

2.2.2. Agar amaldagi qonunchilikning belgilangan talablariga mos kelmasligi tufayli arizani bajarish imkonsiz bo'lsa, bu haqda mijozga ariza topshirilgan kuni yoki ariza berilgan kundan boshlab keyingi ish kuni ichida xabar beriladi.

2.2.3. Avvalroq maxsus valyuta hisob raqamlaridan ro'yxatdan chiqarilgan va ishlatilmaganligi sababli ushbu hisob raqamlarga qayta kiritilgan chet el valyutasidagi mablag'larni qayta sotishni, akseptsiz tartibda amalga oshirish.

2.2.4. Sotib olingan chet el valyutasi mijozning maxsus valyuta hisob raqamiga (22614) o'tkazilgan paytdan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida bajarilmagan taqdirda, chet el valyutasidagi mablag'larni qayta sotishni amalga oshirish.

2.3. Bank huquqlari:

2.3.1. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me'yoriy hujjatlarga muvofiq lozim darajada tekshirish va operatsiyaga doir tegishli hujjatlarni talab qilib olish.

2.3.2. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me'yoriy hujjatlarga muvofiq so'ralgan hujjat va ma'lumotlar taqdim qilinmaganda yoki jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarida belgilangan boshqa hollarda mijoz bilan amaliy ish munosabatlariga kirishishni yoki mijozning operatsiyalarini amalga oshirishni rad etish.

2.3.3. Mijoz yoki uning operatsiyalari xalqaro va milliy sanksiyalar ta'sir doirasiga tushganda, tushish xavfi mavjud bo'lganda yoki xalqaro va milliy sanksiya ta'sir doirasiga tushishini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda, operatsiyani o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash, operatsiya miqdorini chegaralash, amaliyotlarni rad etish.

2.3.4. Mijoz hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'larni kelib tushgan mablag' sanksiya va taqiqlardan xoli ekanligi aniqlangunga qadar vaqtincha alohida tranzit hisobvaraqa saqlash.

2.3.5. Mijoz yoki uning operatsiyalari sanksiya va taqiqlardan xoli ekanligi bo'yicha mustaqil ekspert yoki nufuzli konsalting kompaniyasi xulosasini talab qilish.

2.3.6. Mijoz tomonidan qasddan noto'g'ri bo'lgan hujjatlar taqdim etilganda yoki qonun hujjatlariga muvofiq so'raladigan hujjatlar taqdim etilmaganda operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish.

2.3.7. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish.

3. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaslik va / yoki kerakli darajada bajarmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgardirlar.

4. FORS-MAJOR HOLATLARI

4.1. Yengib bo'lmaydigan kuchlar, vaziyatlar (fors-major) – bu oldindan aytib bo'lmaydigan va kutilmagan favqulodda vaziyatlar, tomonlar majburiyatlarni bajarishga imkon bermaydigan, xohish-irodasi, istaklari va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (harbiy harakatlar, tutqunlik, taqiqlash) tufayli yuzaga kelgan to'lov tizimi va xavfsizlik tizimidagi xalqaro, banklararo va bank ichidagi muammolar, bankning dasturiy ta'minotiga qaratilgan tahdidlar (uchinchi tomon hujumlari).

4.2. Fors-major holatlarida tomonlar ushbu holat bartaraf etilgunga qadar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etiladi.

4.3. Fors-major holatlari yuzaga kelgan va oldi olingan paytdan boshlab, tomon 3 bank kuni ichida ikkinchi tomonni yozma ravishda xabardor qilishi shart.

4.4. Fors-major holatlarining yuzaga kelishi va oldini olish to'g'risida bildirishnomalar tomonlar uchun mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin (SMS va MMS xabarlar bundan mustasno).

4.5. Agar 30 kun ichida fors-major holatlarining oldi olinmasa, tomonlar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ega.

5. MAXFIYLIK

1.1. Ushbu shartnomani tuzish va ijro etilishi davrida tomonlar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi.

1.2. Shartnomani tuzish va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish paytida bir tomon axborot egasining yozma rozilgisiz boshqa tomonning tijorat siri bo'lgan maxfiy xabar va ma'lumotlarni oshkor qilish uchun javobgardir.

1.3. Tomonlar ushbu shartnomaning qat'iy maxfiyligini ta'minlash va tomonlarning o'zaro rozilgisiz ushbu ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik uchun javobgarlikni o'z zimmlariga oladilar.

1.4. Ushbu talabnoma shartnoma muddati davomida va shartnoma muddati tugagan kundan boshlab 3 yil davomida amal qiladi.

1.5. Ushbu talablarni buzgan tomon keyinchalik boshqa tomonga buzilgan zararni to'liq qoplab beradi.

6. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

1.6. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish paytida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni yoki nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qiladilar

1.7. O'zaro kelishish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, boshqa tomon huquqlari buzilgan taraf tomonidan yuborilgan so'rov yoki ogohlantirish xati bo'yicha ularda ko'rsatilgan muddatda javob berishi shart.

1.8. So'rov yoki ogohlantirish xati shaxsan taqdim etiladi, elektron pochta orqali yoki pochta xizmati orqali buyurtma xat yuboriladi.

1.9. Tinch yo'l bilan hal etilmagan nizolar xo'jalik sudi orqali O'zbekiston Respublikasi qonuniy hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha qo'shimcha va o'zgartishlar yozma va elektron shaklda (oferta) tuzilgan va tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirdagina amal qiladi.

7.2. Hech bir tomon ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa tomonning yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga taqdim etish yoki topshirishga haqli emas.

7.3. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me'yoriy hujjatlarga muvofiq so'ralgan hujjat va ma'lumotlar taqdim qilinmaganda, bank mazkur shartnomani bir taraflama bekor qilishga xaqlidir.

7.4. Mijoz yoki uning amaliyotlari xalqaro va milliy sanksiya ta'sir doirasiga tushganda, tushish xavfi mavjud bo'lganda yoki xalqaro va milliy sanksiya ta'sir doirasiga tushishini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda, mijoz amalga oshirayotgan operatsiyalar mijozning anketasidagi profiliga nomuvofiq bo'lganda, bank shartnomani bir tomonlama bekor qilishga xaqlidir.

7.5. Mijoz "Hamkorbank" ATBning ichki siyosatiga muvofiq "taqiqlangan" mijozlar toifasiga kiritilgan taqdirda, bank mazkur shartnomani bir taraflama bekor qilishga xaqlidir.

7.6. Ushbu shartnomada bevosita tartibga solinmagan boshqa hamma narsada tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

7.7. Tomonlar ushbu shartnoma haqida quyidagi aloqa vositalari orqali ma'lumot almashishga kelishib oldilar:

*** Mijoz:**

- 1) _____ (mobil telefon raqami);
- 2) _____ (elektron pochta manzili);
- 3) _____;

Bank:

- 1) qisqa raqam – 1256 (uyali aloqa operatorlari tariflariga muvofiq haq to'lanadi);

2) Raqami: 0 (800) 1-200-200;

3) contact@hamkorbank.uz

* mijoz tomonidan to'ldirilishi zarur bo'lgan maydon

8. SHARTNOMA MUDDATI.

8.1. Ushbu shartnoma tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.

8.2. Ushbu shartnomaning muddati tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajarib bo'lgunga qadar amal qiladi.

8.3. Bank shartnomani bekor qilishning kutilayotgan muddatidan 10 kun oldin mijozga xabar berish orqali bekor qilish huquqiga ega.

8.4. Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq kelishuvni amalga oshirishni rad etish huquqiga ega.

8.5. Mazkur shartnomaning 2.1.2-bandi asosida bank tomonidan talab qilingan hujjatlar/ma'lumotlarni taqdim etishdan bo'yin tovlagan va taqdim etilmagan hollarda bank mavjud aloqa kanallari orqali mijozga xabar berish orqali shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga egadir.

8.6. Bu shartnoma ikki nusxada tuziladi. Har bir nusxa bir xil yuridik kuchga ega, bir nusxasi bankda, ikkinchisi mijozda saqlanadi.

9. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI:

Bank: "Hamkorbank" ATB _____ filiali	Mijoz: "_____" _____
Manzil: _____ _____	Manzil: _____ _____
Tel.: _____ faks: _____	Tel.: +998 _____
INN: _____ Bank kodi: _____	INN: _____ Bank kodi: _____
H/r: _____	H/r: _____
Rahbar: _____	Rahbar: _____
Yurist: _____	Bosh hisobchi: _____
M.O'. _____	M.O'. _____